



INNOVATSION KASBIY TAYYORGARLIKNI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARDA OSHIRISH TALQINI

Shodiyev Faxriddin Teshaevich

Filologiya fanlari nomzodi, professor v.b., O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, kafedra mudiri El-pochta: Shodiyevbt@gmail.com

Xolmonov Fayoziddin Akmal o'g'li

O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich magistranti Tel: +998(99)182-80-90 El-pochta: xolmonovfayoziddin@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarning innovatsion kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda uchrayotgan muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Pedagogik ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, o'quv-metodik bazaning eskiligi kabi tizimli kamchiliklar ochib berilgan. Shu asosda innovatsion tayyorgarlikni rivojlantirish yo'nalishidagi takliflar ilgari surilgan. Maqola oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan bog'liq dolzarb masalalarga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Innovatsion kasbiy tayyorgarlik, boshlang'ich ta'lif, pedagogik ta'lif, nazariya va amaliyot tafovuti, raqamli texnologiyalar, metodik baza, pedagogik kompetensiya, amaliy mashg'ulot, bo'lajak o'qituvchi, ta'lif sifati.

Abstract: This article examines the pressing issues encountered in the innovative professional training of future primary school teachers within the system of higher pedagogical education in Uzbekistan. The analysis focuses on the gap between theory and practice, insufficient digital literacy among students, outdated methodological resources, and the limited effectiveness of practical training. The article also proposes concrete strategies to enhance the innovative training of prospective teachers during their university education.

Keywords: innovative training, primary education, teacher education, theory and practice, digital technologies, methodological base, pedagogical competence, practical training, future teacher, quality of education.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы, возникающие в процессе инновационной профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов в условиях высшего педагогического образования Узбекистана. Проанализированы такие факторы, как разрыв между теорией и практикой, недостаточная цифровая грамотность студентов, устаревшая учебно-методическая база и пассивность практических занятий. В статье также предложены конкретные пути совершенствования инновационной подготовки педагогических кадров на этапе обучения в вузе.



Ключевые слова: инновационная подготовка, начальное образование, педагогическое образование, теория и практика, цифровые технологии, методическая база, педагогическая компетентность, практические занятия, будущий учитель, качество образования.

Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limgan sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda ta'limgan rivojlantirishga taraqqiyotning ustuvor yonalishi sifatida yondashilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev xalq ta'limgini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni ko'rsatib berar ekan, shunday ta'kidlaydi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir"! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak". Ayniqsa, boshlang'ich ta'limgan bosqichi – bola shaxsining shakllanishi va asosiy bilim ko'nikmalarini egallash davri sifatida – zamonaviy, innovatsion yondashuvlarga ega pedagoglarni talab etmoqda. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi masalasi ta'limgan sohasining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi – har qanday jamiyat taraqqiyotining ilk negizini shakllantiruvchi asosiy mutaxassis bo'lib, u bolalik davridanoq shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatadigan, ularni bilim olishga, tafakkur qilishga va ijtimoiy hayotga moslashishga yo'naltiradi. Boshlang'ich ta'limgan pedagogi yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatları va mustaqil fikrlash salohiyatini shakllantirishda yetakchi o'rinnegi egallaydi. Zero, aynan shu bosqichda qo'yilgan ta'limiyligi va tarbiyaviy poydevor kelgusida ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy rivojlanishga xizmat qiluvchi yetuk kadrlarning yetishib chiqishiga asos bo'ladi. Shu boisdan, bosqichma-bosqich takomillashayotgan zamonaviy ta'limgan tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat dars beruvchi, balki o'quvchining shaxsiy rivojiga yo'naltiruvchi murabbiy, tarbiyachi, innovatsion fikr yuritishga yo'naltiruvchi mutaxassis sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi faqatgina dars beruvchi emas, balki:

- bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi;
- kreativlikka ega;
- yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana oluvchi;
- kommunikativ yondashuvga ega;
- doimiy o'qib-o'rganuvchi va o'z ustida ishlovchi shaxs bo'lishi lozim.

Shunday ekan, pedagog kadrlarni tayyorlashda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion va interfaol metodlardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.



Zamonaviy ta'lismizning jadal rivojlanishi sharoitida pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorligi, o'quvchi bilan ijodiy va samarali ishslash kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Innovatsion kasbiy tayyorgarlik – bu o'qituvchini ta'lismiz jarayonida yangicha metod va yondashuvlarni mustaqil ishlab chiqish, zamonaviy raqamlari vositalarni tatbiq etish, o'zining pedagogik faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirishga qodir mutaxassis sifatida tayyorlash jarayonidir. Bunday tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagog nafaqat o'z fanini chuqur biluvchi, balki ta'lismiz sifati va natijadorligini oshirishga qaratilgan ijodiy va innovatsion tashabbuskor sifatida ham shakllanadi. U kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash kabi zamonaviy talablarga javob beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida pedagog kadrlar malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shu bois, pedagoglarni qayta tayyorlash yoki oliy ta'lismiz bosqichidanoq ularni ilmiy-amaliy faoliyatga jalb qilish orqali innovatsion salohiyatini oshirish muhim hisoblanadi. Bu esa, fan yutuqlari, ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy elektron platformalar, laboratoriylar va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Ta'lismiz to'g'risidagi Qonuni (2020-yil, yangi tahrir) ham bu yo'nalishda ta'lismiz sifatini oshirish, pedagoglarning doimiy kasbiy rivojlanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadi.

Innovatsion kasbiy tayyorgarlik quyidagi asosiy tarkibiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Interaktiv, modulli va raqamlari ta'lismiz texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- 2) Mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni yechishga oid strategiyalar ishlab chiqish;
- 3) Metodik yangiliklarni yaratish, tajribada qo'llash va ommalashtirish;
- 4) Ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsion loyihalarda ishtiroy etish;
- 5) Kasbiy refleksiya, o'z-o'zini rivojlantirish, hayot davomida o'qish kompetensiyasini shakllantirish;
- 6) Axloqiy-mehnat madaniyati, liderlik salohiyati va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlanish.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lismiz innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilayotgan bir davrda, pedagogik kadrlarni yangicha ruhda tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jumladan, O'zbekiston oliy ta'lismiz muassasalarining boshlang'ich ta'lismiz yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni innovatsion kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud.

Bu muammolar esa ta'lismiz sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, kadrlar tayyorlashdagi uzviylik va amaliyotga moslashuvchanlikni susaytirmoqda.



Mazkur holat mamlakatimiz oliy ta'limgiz tizimida hanuzgacha saqlanib qolayotgan ayrim og'reqli muammolar qatoriga kiradi. Xususan, quyidagi jihatlar bu yo'nalishda to'siq bo'lib xizmat qilmoqda:

1. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut – ko'plab oliy ta'limgiz muassasalarida darslik va o'quv rejalarini orqali berilayotgan nazariy bilimlar maktab amaliyoti bilan yetarlicha integratsiyalashmagan. Bu esa talabalar o'rgangan bilimlarni real ta'limgiz muhitida qo'llashda qiyinchilik tug'diradi.

2. Innovatsion texnologiyalarni yetarli darajada o'zlashtirmaslik – ba'zi talabalarda zamonaviy raqamli platformalar (Google Classroom, Microsoft Teams, Maktab.edu, Zoom, LMS tizimlari va h.k.) bilan ishlash ko'nikmalari sust rivojlangan. Bu esa ularni innovatsion o'quv jarayoniga faol qo'shila olish imkoniyatini cheklaydi.

3. O'quv-metodik bazaning eskiligi – ayrim oliy ta'limgiz muassasalarida foydalilanayotgan metodik adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar va darsliklar zamonaviy ta'limgiz talablariga mos emas, ya'ni yangilanmagan, innovatsion metodika va vositalarni aks ettirmaydi.

4. Amaliy mashg'ulotlarning samarasizligi – talabalarning pedagogik amaliyoti real maktab muhiti bilan yetarlicha bog'lanmagan. Ular dars jarayonida faol ishtirok etmaydi, mustaqil dars tashkil etish, metodik ishlanma tuzish, baholash tizimlarini qo'llash bo'yicha tajribaga ega emas.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, innovatsion kasbiy tayyorgarlikni tizimli asosda takomillashtirish, fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, o'qituvchilarini raqamli savodxonlik va ilg'or metodikalarga yo'naltirish zarur. Shuningdek, talabalarni pedagogik faoliyatga erta jalb etish, amaliy mashg'ulotlarni faol kuzatuvchilikdan ko'ra interaktiv ishtirokga asoslangan formatda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy tayyorgarligi ta'limgiz sifati va kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta'sir etadi. Shunday ekan, oliy ta'limgiz muassasalari mazkur yo'nalishda chuqur islohotlar o'tkazib, innovatsion pedagoglar tayyorlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Muammolar tizimli hal etilsa, raqobatbardosh, zamonaviy fikrlovchi o'qituvchilar safi kengayadi. Ushbu yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagog kadrlarning innovatsion kasbiy tayyorgarligi zamonaviy ta'limgiz tizimi talablariga javob beruvchi, yangilikka ochiq, ijodiy fikrlovchi va raqamli savodxonlikka ega o'qituvchilarini tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Biroq bugungi holatda nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut, metodik bazaning yangilanmagani, zamonaviy texnologiyalarni yetarlicha egallamaslik, amaliy mashg'ulotlarning passivligi kabi qator muammolar mavjud bo'lib, bu kasbiy tayyorgarlik jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli, pedagogik ta'limgiz jarayonida nazariy bilimlarni maktab amaliyoti bilan uyg'unlashtirish, talabalarda innovatsion yondashuvga asoslangan darslarni loyihalashtirish ko'nikmasini shakllantirish, ilg'or ta'limgiz texnologiyalari va raqamli platformalarni samarali qo'llay olishga yo'naltirish, o'quv-metodik adabiyotlarni



doimiy yangilab borish, amaliy mashg'ulotlarni interaktiv va ijodiy faoliyatga asoslash zarur.

Bunday kompleks yondashuv orqali kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lif tizimining ishonchli, innovatsion va raqobatbardosh subyekti sifatida shakllantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori. "Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – 20.04.2017 y. – 5 b.
2. Xamidov A.A. Pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish. – Toshkent: TDPU, 2022. – 112 b.
3. Boltaboyeva N.S. Pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 140 b.
4. Qo'chqorova M.X. Boshlang'ich ta'limdi innovatsion texnologiyalar. – Samarqand: Samarqand nashriyoti, 2021. – 128 b.
5. Xolmonov F. Boshlang'ich sinflarda ertak janrini innovatsion o'qitish usullari // Integration of science and education, 2024, 2-son, 205-b.
6. Xolmonov F. Boshlang'ich sinflarda ertak janrini innovatsion o'qitish usullari // Integration of science and education, 2024, 2-son. 206-b
7. Murodova D.S. Oliy ta'limdi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari // "Ilm-fan va taraqqiyot yo'lida" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 134–138.
8. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018. – 86 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Darslik va o'quv qo'llanmalar mualliflari bilan ishslash tartibi. – Toshkent, 2023. – 21 b.
10. Xolbekova S. Oliy ta'limdi raqamli pedagogikaning o'rni // "Zamonaviy ta'lim: muammolar va yechimlar" xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2023. – B. 89–92.
11. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.